



## ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MODALLIK VA EKSPRESSIVLIK KATEGORIYALARINING NAZARIY-KONSEPTUAL MUAMMOLARI

**Latipjonova Malikaxon Odiljon qizi**

Andijon Davlat Universiteti 10.00.06- Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik" ixtisosligi bo'yicha 2-bosqich tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15672612>

### **Annotatsiya**

Ushbu tezis zamonaviy tilshunoslikda modallik va ekspressivlik kategoriyalarining nazariy-konseptual muammolarini yoritishga qaratilgan. Tadqiqotda modallikning lingvistik va mantiqiy talqinlari o'rtasidagi tafovut, obyektiv va subyektiv modallik turlarining grammatik va semantik realizatsiyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, ekspressivlik kategoriyasining emotsionallik bilan o'zaro bog'liqligi, uning fonetik, leksik, grammatik va stilistik darajalardagi ifoda vositalari ko'rib chiqiladi. Muallif modallik va ekspressivlik kategoriyalarining kommunikativ-pragmatik imkoniyatlarini ochib beradi hamda ularni zamonaviy tilshunoslikda konseptual asosda qayta talqin qilish zarurligini asoslaydi.

### **Kalit so'zlar**

modallik, ekspressivlik, emotsionallik, lingvistik tafovut, pragmatika, semantika, zamonaviy tilshunoslik, kommunikativ funksiya

Zamonaviy tilshunoslikda modallik va ekspressivlik kategoriyalarining nazariy asoslari va amaliy ifodalanishi bo'yicha tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, ularning aniq chegaralari, tasnifi va funksional vazifalari hali hamon murakkab va bahsli bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, modallikning barqaror konseptual modeli shakllanmagani va mavjud tasniflarning empirik asosga ega emasligi bu sohaga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda ushbu mavzudagi izlanishlar susaygani kuzatilib, mavjud yondashuvlarning nazariy zaifligi bu holatning asosiy sabablaridan biri sifatida ko'rilmogda. Funksional yondashuvlar kuchaygan davrda modallikni nazariy jihatdan qayta talqin qilish ehtiyoji dolzarb masalaga aylandi. Modallikning ifoda shakllari, semantik va pragmatik funksiyalaridagi xilma-xillik esa bu kategoriyani aniq belgilashni qiyinlashtirmogda. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda modallikning yagona va umumiy talqini hanuz mavjud emas.

Ushbu muammoning asosiy sababi sifatida lingvistik modallik bilan mantiqiy modallikning to'liq mos kelmasligi, ya'ni ular o'rtasidagi epistemik va sistematik tafovut keltiriladi. Bu tafovut nafaqat lingvistika, balki mantiq fanida ham modallikni aniq chegaralash va tasniflashda sezilarli qiyinchilik tug'dirib, hozirgi kunda ham dolzarb nazariy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.





Struktura jihatidan obyektiv modallik ko'pincha fe'lning zamon va mayl shakllarida ifodalanib, gapdagi voqeaning real yoki norealligini – ya'ni borliqqa nisbatan mavjudlik darajasini belgilaydi. Subyektiv modallik esa so'zlovchining voqea-holatga munosabatini bildiradi va semantik-pragmatik mezonlarga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Imkoniyat modalligi – harakatning yuz berish ehtimolini bildiradi. “Bo'lmoq”, “qilmoq”, “olmoq” kabi fe'llar orqali ifodalanadi. Masalan: U institutda o'qiy oladi.

2. Istak modalligi – so'zlovchining ehtiyoj, orzu va intilishlarini anglatadi. “Xohlamoq”, “istamoq” kabi fe'llar ishlatiladi. Masalan: Men o'qishni istayman.

3. Zaruriyat va majburiyat modalligi – harakatning muqarrarligini bildiradi. “Kerak”, “lozim”, “zarur” kabi birliklar bilan ifodalanadi. Masalan: Men o'qishim kerak. Bu modallik xalq og'zaki ijodida ham poetik vosita sifatida uchraydi:

Ignadan ip o'tmasa, ko'z ne chun darkor ekan?

Nolasi tosh teshmasa, so'z ne chun darkor ekan?

Bu modallik shakllari faqatgina grammatik vositalar emas, balki tilning semantik va pragmatik qatlamlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ham aks ettiradi. Ular subyektning harakatga bo'lgan bahosi, ehtiyoji va irodasini til vositasida kodlashga xizmat qiladi .

Garchi bu kategoriya bo'yicha G'arb va Sharq tilshunoslik maktablarida salmoqli miqdorda ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, uning semantik maydoni hanuz to'laqonli tarzda yoritilmagan va ko'plab jihatlari ochiq qolmoqda. Ayniqsa, aspektivlik va zamon kategoriyalarining o'zaro nisbatini aniqlash, bu tushunchaning funksional-lisoniy tabiati va sistemaviy holatini belgilash hozirgi zamon tilshunosligining dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.


The police made the bomb explode.

The sun ripened the fruit.

Her voice calmed the audience.

I.V. Arnold ekspressivlikka shunday ta'rif beradi, u so'zlovchining ichki holatini intensiv holda ifodalaydi va u ushbu ma'noni yetkazib berish yordamida paydo bo'ladi. Bunday intensivlik emotsional yoki mantiqiy kuchaytirishni yuzaga keltiradi.

Demak, ekspressivlik va emosionallik kategoriyalari bir-biridan ajralmas hisoblanasada, muloqot jarayonida quyidagi farqli vazifalarni bajaradilar:





- Emotsionallik voqelikni hissiy baholash vazifasini bajarsa, ekspressivlik – resipientga ifoda kuchi orqali maqsadli ta’sir o’tkazish hisoblanadi;

- Emosionallik til birliklari uslubiy ma’nosining tarkibiy qismi bo’lsa, ekspressivlik o’sha til belgisida mujassam xabar mazmunining resipient tomonidan qabul qilinish tabiatini aniqlaydi; Emosional konnotatsiyaning mavjudligi, odatda, ekspressivlikni jalb qiladi, biroq ekspressivlik emosionallikni jalb qila olmaydi. Ekspressivlikning ko’lami emosionalliknikidan ancha keng, shu sababli u tilga pragmatik tabiat bilan voqealanadi;

- Ekspressiv hisoblangan har qanday qurilma emotsional hamdir, biroq har qanday emotsionallik ekspressiv bo’la olmaydi .

Ekspressivlik kategoriyasi belgining intensivligi, bahosi, emotivligi, stilistik belgilari, obrazli-motivatsiyalangan nominatsiyasi asosi kabi muhim komponentlarni o’z ichiga oladi. Har bir komponent ma’noni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilning ekspressiv resurslari nihoyatda boy va rang-barang bo’lib, ular til tizimining barcha darajalarida - fonetik, leksik, grammatik, sintaktik va stilistik qatlamlarda faoliyat yuritadi. Bu jihatdan ekspressivlik tilning lokal hodisasi emas, balki uning umumiy kommunikativ potensialining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Rus olimlaridan birining ta’kidlashicha, “Ekspressivlilik tilning barcha sohalari va arsenallariga taalluqlidir .” Ya’ni u til birliklarining shakl va mazmun darajalarida emotsional-estetik ta’sir kuchini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, tilshunoslikda ekspressivlik kategoriyasi bo’yicha turli qarashlar mavjud. Lisoniy adabiyotlarda hissiy-ekspressiv bo’yoqdorlikni shakllantiruvchi vositalarni tavsiflash uchun quyidagi ta’riflar keltirilganligiga guvoh bo’lamiz:


1. Ekspressiv qurilma deganda xabar mazmuniga affektiv nyuans yuklab, mantiqiy tartibning buzilishiga olib keluvchi birliklar jamlanmasi tushuniladi.

2. Ba’zi tadqiqotlarda ekspressivlik ostida til birliklarining adresatga nisbatan ta’sir o’tkazish funksiyasini tushuniladi.

3. Ekspressiya lisoniy elementning baho va ifodalilik tabiatini tashkil qiladi. Xabarning neytral ko’rinishi ekspressivlikka qarama-qarshi qo’yilsa, ijobiy baho kategoriyasi salbiy haqoratomuz ekspressiya bilan oppozitivdir. Shuningdek, nutqning patetik, erkalov, ironik, haqoratomuz ottenkalari bilan bo’yoqdorlikka ega bo’lishi ham baho ekspressiyasi hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Алсынбаева Р. Г. Логическая и лингвистическая сущность категории модальности // Вестник Башкирск. ун-та. 2013. №1. URL:





<https://cyberleninka.ru/article/n/logicheskaya-i-lingvisticheskaya-suschnost-kategorii-modalnosti> (дата обращения: 30.06.2024).

2. Якубов Жамолидин Абдувалиевич Модаллик категориясининг мантиқ ва тилда
3. ифодаланиш хусусиятлари Мутахассислик 10. 02. 19 – умумий тилшунослик, социолингвистика, психолингвистика
4. Аспектуальность как прагматическая категория Соколова Е. Е., Гридина Н. В. Российский государственный социальный университет
5. An Introduction to Functional Grammar 3rd edition, 259 page, First published in Great Britain in 2004 by Arnold, a member of the Hodder Headline Group, 338 Euston Road, London NW1 3BH
6. Арнольд И.В. Интерпретация художественного текста: типы выдвижения и проблемы экспрессивности/И.В. Арнольд//Экспрессивные средства английского языка: Сб. научных трудов ЛГПИ им. А.И. Герцена. – Л.: ЛГПИ, 1975.– С. 11–20.
7. Эгамназарова Дурдона Шухратиллаевна (Андижон Давлат чет тиллари институти ўқитувчиси, филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD); Экспрессивлик категориясининг ёндаш ҳодисалар билан алоқаси масалалари
8. Арнольд И.В. Интерпретация художественного текста: Типы выдвижения и проблема экспрессивности. Экспрессивные средства английского языка. Л., ЛГПИ имени А.И. Герцена, 1975, с. 11 – 20.
9. Тошович Б. Экспрессивный синтаксис глагола русского и сербского/хорватского языков. М., Языки славянской культуры, 2006, с. 17
10. . Чайковский Р.Р. Общая лингвостилистическая категория экспрессивности и экспрессивность синтаксиса. – Учен. зап. 1-го МГПИИЯ им. Тореза, 1971, т. 64.
11. Bally, Ch. Précis de stylistique. Genève: A. Eggimann & Cie librairies – éditeurs, 1905, p. 148; Доза А. История французского языка. Пер. с фр. Под ред. и с предисл. М.С.Гурычевой. М., Едиториал УРСС, 2003, с. 370
12. Долинин К.А. Стилистика французского языка. М., “Просвещение”, 1987, с. 116; Кругликова Л.Е. Структура лексического и фразеологического значения. Учеб. пособие, М., “Наука”, 1988, с. 53; Кругликова Л.Е. Структура лексического и фразеологического значения. Учеб. пособие, М., “Наука”, 1988, с. 21





13. ЗПиотровский Р.Г. Очерки по стилистике французского языка. Морфология и синтаксис. Л., Типография №1 «Печатный двор» им. А.М.Горького, 1960, с. 23.

